



## MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILIGA MARJINAL YONDASHUV

**Kusharov Zoxid Keldiyorovich**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2024-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2024-yil <b>Jurnal soni:</b> 10 <b>Maqola raqami:</b> 12 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.906">https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.906</a></p>	<p>Maqolada chorvachilik mahsulotlari, xususan go'sht va sut ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikni oshirishda marjinal tahlil usullarining ahamiyati, uni aniq ma'lumotlar asosida hisoblash yo'llari, hisoblashlar bo'yicha olingan natijalar tahlil etish asosida ilmiy xulosalar bayon qilingan. Bunda marjinal tadqiqot usulining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi, elastiklik ko'rsatkichlari jumladan, narxga nisbatan talab elastikligi yoki daromadga nisbatan talab elastikligi sifatida go'sht bozoridagi vaziyatni yanada aniqlashtirishga imkon yaratdi. Marjinal tadqiqotlarimiz uchun qo'llaniladigan o'zgaruvchan xarajatlarga asosan ozuqa xarajatlari hisobga olindi.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b></p>	
<p>raqobat, narx, talab va taklif, iqtisodiy tizim, poda tarkibiy tuzilishi, marjinal tadqiqot, marjinal daromad, elastiklik ko'rsatkichlari, ziyonsizlik nuqtasi, retabellik.</p>	

**Kirish.** Har qanday iqtisodiy faoliyatning bosh mezoni samaradorlikka erishish hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari qaror topgan sharoitda ishlab chiqarish samaradorligi raqobotbardoshlikning muhim tayanchi vazifasini bajaradi. Samaradorlikni oshirishga qaratilgan har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagi tamoyillar ayrim xolda yoki o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlitlikda qo'llaniladi:

- Ishlab chiqarish omillari o'zgarmas bo'lgan sharoitda daromad hajmini oshirishga intilish;
- Ma'lum daromadga ega bo'lishi uchun iqtisodiy omillar sarfini qisqartirish;
- Xarajatlarning o'sish sur'atlariga nisbatan daromadlarning o'sish sur'atini yuqoriligi ta'minlash.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hozirgi sharoitida yuqoridagi tamoyillarni ayrim holda foydalanishga nisbatan ulardan o'zaro bog'liqlikda foydalanish o'zining afzalliklarini namoyon etmoqda. Chunonchi, go'sht ishlab chiqarishda mukammal raqobatning mavjudligi, bozorda asosiy salmoqni egallagan shaxsiy yordamchi, tomorqa va dehqon xo'jaliklari faoliyatida o'z isbotini topmoqda. Chunki mukammal raqobat sharoitida raqobatchilarning ustunlik mavqei bozor narxiga moslashish hisobiga erishiladi. Aynan, ushbu vaziyat har bir go'sht ishlab chiqaruvchi subyekt uchun serxarajatlikka barham berishni taqozo etadi.

Go'sht ishlab chiqaruvchilarning ijtimoiy rag'batlantirilishi jiddiy tashqi ijobiy omil vazifasini o'taydi. Ayniqsa, aholi daromadlarining izchil va uzluksiz ortib borishi ularning fiziologik me'yor darajasidagi go'sht iste'mol qilishlari uchun imkoniyatlar doirasini kengaytiradi. Ko'rinadiki, go'sht ishlab chiqarish hamda iste'molning ortishi tashqi va ichki omillarning, xususiyligi va ijtimoiy manfaatlarining o'zaro uyg'unligini taqozo etadi. Yuqoridagilar bois, go'sht ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy faoliyatining samaradorligini asoslashda ham nazariya ham amaliy, ham xususiyligi, ham ijtimoiy nuqtai-nazardan o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Ya'ni, qat'iy rejalashtirish davridagi ma'muriy yondashuvdan voz kechishni talab etdi. Binobarin, bozor sharoiti uchun o'zgaruvchan narx, talab va taklif muvozanatini muntazam saqlash uchun qo'llaniladigan an'anaviy usullarning imkoniyatlarini cheklanganligini qayd etish lozim. Cheklanganlikka barham berish uchun tadbirkorlik subyektlarining bir maromda barqaror ravnaq topishiga qaratilgan bozor munosabatlarini tartibga solishning ilg'or usullarini qo'llashni va samarali iqtisodiy tizimni barpo etishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Chorvachilik sohasida mahsulot samaradorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish O'zbekiston tadqiqotchilari va siyosatchilari tomonidan ko'plab o'rganilgan mavzudir. Ismoilov (1988) O'zbekistonning chorvachilik mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashda duch kelayotgan muammolariga to'xtalib o'tdi. Ushbu dastlabki izlanish sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratdi. Nosirov (2001) "Qoramolchilik" tushunchasini chorvachilik kontekstida o'rganib, ushbu bilimlar majmuasiga hissa qo'shgan. Shuningdek

tadqiqot an'anaviy amaliyotlar va ularning zamonaviy qishloq xo'jaligi tizimlariga ta'siri haqida tushuncha bergan. Abdurahimov va Kusharov (2012) qishloq xo'jaligida go'sht yetishtirishning iqtisodiy samaradorligiga alohida to'xtalib, barqaror amaliyotlar zarurligini ta'kidlab, takomillashtirish istiqbollarini belgilab berdi. Bundan kelib chiqqan holda, Noraliyev va Kusharov (2019) qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanayotgan texnologik o'zgarishlarini aks ettiruvchi raqamli iqtisodiyotda chorvachilik ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirishga kirishdi.

Kusharov (2021) agroservislarini rivojlantirish orqali chorvachilikda boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlarini o'rganib chiqdi, optimallashtirishning amaliy strategiyalarini taklif qildi. Bundan tashqari, Kusharov (2021) turli shakldagi xo'jalik korxonalarida go'sht ishlab chiqarishning ahamiyatini ta'kidlab, uning qishloq xo'jaligidagi muhim rolini ta'kidladi. Urmanov (1989) va Xoliqov (1984) ishlab chiqarish dasturlarini modellashtirish va mol go'shti ishlab chiqarishni faollashtirish bilan shug'ullanib, operatsion strategiyalar haqida qimmatli tushunchalar berdi. Bundan tashqari, Xidirov (1989) va Hakimov (2005) chorvachilik sohasida bozor islohotlarini faollashtirish va takomillashtirish va modernizatsiya qilish yo'llarini yoritishga e'tibor qaratdilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mavjud adabiyotlarda O'zbekistondagi chorvachilik bo'yicha iqtisodiy, texnologik va boshqaruv istiqbollarini o'z ichiga olgan boy tadqiqotlar ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqotlar qishloq xo'jaligi sektorida mahsulot samaradorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun marjinal yondashuvni yanada chuqurroq o'rganish uchun asos yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mikroiqtsodiy tadqiqotlarda bozor munosabatlarini o'rganishning eng ommaviy usullaridan biri - marjinal tadqiqot usuli hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini bashorat qilishda xususan, dehqon-fermer xo'jaliklarida go'sht ishlab chiqarishni ko'paytirishda ham ushbu usul afzalliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayni chog'da, marjinal tadqiqot usulining o'ziga xos xususiyatlarining shart-sharoitlariga rioya qilishni talab etadi. Bular uchun:

bashorat davri uchun go'sht assortimenti(sarpanja, lahm, biqin va boshqa) o'zgarmas qilib belgilanishi;

ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan go'sht hajmi bashorat davrida to'liq sotilishi ko'zda tutilishi;

go'shtning sotilgan hajmi bilan sotishdan tushgan tushum o'rtasidagi bog'liqlik o'zaro proporsional hisoblanishi;

go'sht ishlab chiqarish hajmi uchun zarur bo'lgan xarajatlar tarkibi doimiy va o'zgaruvchan xarajatlardan iborat bo'lishi, ya'ni doimiy xarajatlar manbaini xo'jalikning asosiy aktivlari, o'zgaruvchan xarajatlar manbai esa aylanma aktivlar tashkil etishi;

doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgaruvchan xarajatlar go'sht ishlab chiqarish hajmi bilan o'zaro mos proporsionallikda o'zgarishi;

marjinal daromad hajmi go'sht sotishdan olingan tushum bilan o'zgaruvchan xarajatlarining ayirmasi orqali hisoblanadi.

Marjinal tadqiqot usulining keng miqyosli qo'llanilishida go'sht narxining o'zgaruvchanligini hisobga olish muhim o'rin tutadi. Chunki, go'sht sotuvidan olinadigan umumiy tushumning mutloq o'sishi sotish narxini o'zgarishi hisobiga ham ta'minlanishi mumkin. Chunonchi, sotish narxini surunkali ravishda kamaytirish talab hajmini ortirsada ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlar qoplanishida qiyinchilik vaziyatini kuchaytiradi. Aynan, tadbirkorlik uchun beziyon ishlab chiqarish va sotish hajmini aniqlashda marjinal tadqiqot bilan bir qatorda elastiklik ko'rsatkichlaridan foydalanish talab etiladi. Elastiklik ko'rsatkichlari jumladan, narxga nisbatan talab elastikligi yoki daromadga nisbatan talab elastikligi sifatida go'sht bozorida vaziyatni oydinlashtirishga imkon yaratadi.

Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bashorat qilinaotgan davr uchun hisoblashni aniqlashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi[5]:

narxga nisbatan elastiklik koeffitsiyent (E);

narxning qo'shimcha o'sish sur'atlari( $\Delta P$ );

joriy davrdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi( $Q_0$ ) va narx( $R_0$ ) va boshqalar.

Bashorat qilinaotgan davrdagi sotuv hajmi( $Q_B$ )ni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Q_B^R = Q_0(1 - \Delta P \cdot E) \quad [1]$$

Bashorat qilinaotgan davrda go'shtni sotuv narxi( $R_B$ )ni hisoblash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$P_B = P_0(1 - \Delta P) \quad [2]$$

Bu davr uchun o'zgaruvchan xarajatlar  $V_B = V_0 \cdot Q_B$  formula bilan, sotuvdan tushgan tushum esa  $R_B = P_B \cdot Q_B$  bilan hisoblanadi.

Umumiy marjinal daromadni hisoblash formulasi quyida keltirilgan:

$$MR = R_B - V_B \quad [3]$$

Umumiy marjinal daromadni hisoblashda go'shtning sotuv narxi va mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat muhim o'rin tutadi. Aynan, ushbu ko'rsatkichlar orasidagi tafovut orqali mahsulot rentabelli ishlab chiqarish hajmining ostonasi yoki boshqacha aytganda, beziyon ishlab chiqarish nuqtasini topish mumkin bo'ladi.

Bu nuqta doimiy xarajatlar hajmini mahsulot birligiga to'g'ri keladigan narxi va o'zgaruvchan xarajatlar orasidagi ayirmaga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Q_B \geq \frac{Doim.xar}{P_B - V_B} \quad [4]$$

Marjinal tahlil usulining bevosita tadqiqini amalga oshirish maqsadida Toshkent viloyati Payariq turmanidagi fermer va dehqon xo'jaliklarining bo'rdoqichilik faoliyati samaradorligini 2020-2023 yillardagi ma'lumotlari tahlil etildi, (1-jadval). O'rganilgan xo'jaliklarda asosan sut mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan-ligiga qaramay go'sht ishlab chiqarish ham salmoqli o'rinni egalladi. Ayni chog'da, o'rganilgan xo'jaliklarda sut ishlab chiqarish samaradorligi, ya'ni rentabelligi go'sht ishlab chiqarishga nisbatan yuqori ko'rsatkichda ekanligi nomayon bo'ldi. Faqat "Aynuraoy" fermer xo'jaligidagina go'sht ishlab chiqarish rentabelligi yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi.

1-jadval

**Payariq tumanida fermer xo'jaliklaridagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari<sup>1</sup>, (2023 yil holati)**

Ko'rsatkichlar	"Tojiyev Komil dalasi" fermer xo'jaligi	"Egamberdiyev Yusuf" fermer xo'jaligi	"Aynuraoy" fermer xo'jaligi	"Zarafshon sahovatli diyori" fermer xo'jaligi
Ozuqa ekinlari maydoni, ga	176	101	26	35,6
qoramol bosh soni, bosh	358	262	115	154
Sigirlar	156	79	43	43
Olingan nasl	144	54	32	16
Qo'yalar	51	100	39	
Go'sht ishlab chiqarish (tirik vaznda), tonna	18	162	34	2,2
1 bosh bo'rdoqiga boqil-gan qoramolning go'shtga topshirish vazni (t.v.),kg	280	305	380	260
Go'sht ishlab chiqarish rentabellik ko'rsatkichlari, %	1,12	1,4	2,6	0,8
Sut sog'ib olish, t	465	189	98	142
1 sog'in sigirdan olingan sut miqdori, l	2980	2341	2279	3320
Sut ishlab chiqarish rentabellik ko'rsatkichlari, %	21	19	15	30
<b>1 ga ozuqa ekin maydoniga to'g'ri keladigan:</b>				
- go'sht, kg	102,2	1604,0	1307,6	61,8
-sut, kg	2642,0	1871,2	3769,2	3988,7

Jadvaldan ko'rinadiki, "Aynuraoy" fermer xo'jaligida bo'rdoqiga boqilgan mollarni go'shtga topshirish vazni ham yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Ushbu xo'jalikda 120 kunlik texnologiya asosida yiliga 3 marta bo'rdoqi uchun 35-40 tadan zotdor mollar boqilishi yo'lga qo'yilgan.

Biroq, "Tojiyev Komil dalasi" va "Egamberdiyev Yusuf" fermer xo'jaliklarida bo'rdoqiga boqiladigan mollar ichida yaroqsiz bo'lgan sigirlarning ham semirish uchun boqilishi sababli go'shtga topshiriladigan 1 bosh qoramolning tirik vazni "Aynuraoy" fermer xo'jaligiga nisbatan past ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Bu esa, go'sht ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu xo'jaliklarda qoramolni bo'rdoqiga boqish texnologiyasi ilmiy- uslubiy adabiyotlarda keltirilgan texnologik parametrlar bilan taqqoslanganda past samaradorlikning sabablari yanada oydinlashdi. Avvalo, bo'rdoqichilikka ixtisoslashish asosida tashkil etilmaganligi sababli qoramollarni parvarishlash, o'stirish va bo'rdoqilash fazalarida

texnologik me'yorlardan jiddiy chetlashilganligi namoyon bo'ldi. Masalan, professor U.Nosirov ma'lumotlariga ko'ra qoramollarni birinchi parvarishlash davri 120 kunni, o'stirish davri esa 210 kunni, bo'rdoqilash davri 250 kunni tashkil etdi. Boshqacha aytganda, qoramollar 17-22 oylik davrda 350-500 kg lik tirik vaznda go'shtga topshirish loyihalashtiriladi[5].

Ayniqsa, bo'rdoqilash davrining fazalarida o'rtaacha kunlik o'sish 900-1050 grammni tashkil etadi. Biroq, biz kuzatgan xo'jaliklarda bo'rdoqiga qo'yilayotgan qoramollarning vazni ilmiy-me'yoriy darajadan jiddiy past bo'lib, parvarish davrining yakunida erishadigan vaznga to'g'ri keladi. Bu bilan qoramollarning o'rtaacha kunlik o'sishi 350-400 kg atrofida bo'lishi tufayli bo'rdoqiga boqiladigan qoramolning boshlang'ich vazniga erishish davri cho'zilishiga, ayni paytda, doimiy xarajatlarning ham ortishiga olib keladi.

Fermer xo'jaliklarida ozuqalarni tayyorlashning zamonaviy sanoatlashgan kichik texnologiyalari usuli joriy etilmaganligi ham yem-

<sup>1</sup> Manba: Payariq tuman Statistika bo'limi materiallari asosida muallif hisob-kitoblari

xashak samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, aholining shaxsiy xo'jaliklarida va fermer xo'jaliklarida somon, tabiiy pichan, ching'oloq, kepak, paxta sheluxasi, shrot, bog' va sabzavot chiqindilari kabilarni ozuqa sifatida ishlatish me'yoriy texnologik darajada tashkil etilmagan. Bu esa, bo'rdoqilash samaradorligiga salbiy ta'sir etibgina qolmay, qoramollarni bo'rdoqilashdan keyingi vazni me'yoridagi 400-450 kg o'miga 300-310 kg ni tashkil etmoqda. Shuningdek, kuzatuvlarga ko'ra, bo'rdoqilash davrida bo'rdoqilash uchun mo'ljallangan ozuqalarning narx tendensiyasi sotilayotgan go'sht narxi tendensiyasidan kam emasligi samaradorlik pasayishining asosiy omillaridan ekanligini ko'rsatdi.

Marjinal tadqiqotlarimiz uchun qo'llaniladigan o'zgaruvchan xarajatlarga asosan ozuqa xarajatlari hisobga olindi. Binobarin, 1 kg o'sish vazniga erishish uchun 10,0 ozuqa birligi fermer xo'jaliklari me'yoriy ko'rsatkichlari asosida belgilab olindi[8].

Bunda ozuqa ratsioni uchun dag'al xashak salmog'i 20 foiz, shirali ozuqalar 30 foiz, konsentratlar 50 foiz atrofida tarkibiy tuzilishni tashkil etadi. Bizning mo'ljaldagi hisobimizga ko'ra, bo'rdoqilash davrining barcha fazalarida 1 kg qo'shimcha vaznga ega bo'lish uchun o'rtacha 38484 so'm sarf-xarajat talab etiladi.

Yuqoridagi fermer xo'jaliklarida bo'rdoqiga boqishning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni tadbir etish maqsadida marjinal tadqiqot usulidan foydalanishning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Buning uchun mazkur xo'jaliklarda 2021 yilning ikkinchi yarmi va 2022 yilning birinchi choragidagi me'yoriy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni asos qilib olamiz.

Bo'rdoqiga boqiladigan qoramollar uchun samaradorlik ko'rsatkichlarining yuqorilik darajasi quyidagi omillarga bog'liqligi aniqlandi: qoramol zoti; bo'rdoqiga boqiladigan molning yoshi; 1 bosh bo'rdoqiga boqiladigan qoramolning boshlang'ich vazni; bo'rdoqiga boqish texnologiyasi; ozuqa ratsioni tarkibi; ozuqalarning narxi; go'sht mahsulotlariga bo'lgan talab kon'yukturasi va boshqalar.

**Tadqiqot natijalari.** Hisob-kitoblarni oydinlashtirish maqsadida bo'rdoqiga boqiladigan 1 bosh qoramol uchun to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar majmuasi ishlab chiqildi. Ular quyidagi tartibda aniqlandi:

1. O'rganilgan xo'jaliklarda bo'rdoqiga boqiladigan qoramolning boshlang'ich tirik vazni 180-222 kg ni tashkil etadi. Tadqiqotimiz uchun o'rtacha tirik vazn sifatida 200 kg bo'lgan qoramol asos qilib olindi. Ushbu qoramol uchun doimiy xarajatlar har 1 kg tirik vaznga 77 ming 250 so'mni, jami qiymat esa 15450 ming so'mni tashkil etadi.

2. 1 bosh qoramolni semirtirish uchun ozuqa va boshqa moddiy xarajatlar 38,484 so'm/kg dan iborat bo'ladi. Ushbu xarajatlar bo'rdoqiga boqishning o'zgaruvchan xarajatlarini tashkil etadi.

3. Bo'rdoqiga boqish uchun 120 kunlik muddat va sutkalik semirtirish miqdori 830 gramm dan hisoblanadi.

4. Bo'rdoqiga boqiladigan qoramollarni tirik vaznda sotish narxi 68 ming so'm/kg ga teng.

Ushbu ma'lumotlar asosida daromadlar va xarajatlarning qoramolni bo'rdoqiga boqish vazniga bog'liqligi grafigini tuzish mumkin. Bu bog'liqlik orqali go'sht ishlab chiqarishning ziyonsizlik nuqtasi hamda foyda olish imkoniyatlari aniqlanadi. Grafikning ordinata o'qida Payariq tumanidagi yuqoridagi fermer xo'jaliklari ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, o'zgaruvchan, doimiy, jami xarajatlar hamda go'sht sotishdan tushgan tushum o'zgarishi aks ettirilgan. Doimiy xarajatlar qoramollarni semirtirish vazniga bog'liq bo'lmaganligi sababli absissa o'qiga parallel ko'rinishda ifodalanadi. Boshqa moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'suvchi to'g'ri chiziqli funktsiya grafigini aks ettiradi. Grafikdan ko'rinadiki, bo'rdoqiga boqiladigan qoramol bo'yicha ziyonsiz nuqta, doimiy xarajatlar qiymati sotish narxi bilan o'zgaruvchan xarajatlar ayirmasiga bo'linishi asosida topiladi.

Bizning tadqiqotimiz uchun doimiy xarajatlar 15450 ming so'mni, sotish narxi esa 68000 so'm/kg va qoramollarni semirtirish uchun o'zgaruvchan xarajatlar 38484 so'm/kg ni tashkil etadi. Bu yerda jami o'zgaruvchan xarajatlar 3848,4 ming so'mni tashkil etadi. Bo'rdoqiga boqiladigan 1 bosh qoramolning o'rtacha vazni 300 kg bo'lganda 1 kg go'sht uchun to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajat 11545,2 so'mni tashkil etadi.

Demak, berilgan me'yoriy ko'rsatkichlarga ko'ra bo'rdoqiga boqiladigan qoramolning o'rtacha vazni 280 kg bo'lganda ishlab chiqarishning ziyonsiz nuqtasi ta'minlanadi. Olingan natijalar yordamida rentabellikning me'yoriy bashorat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\text{Rentabellik, (\%)} = \frac{\text{sotishdan tushgan tushum} - [\text{Doimiy xarajat} + \text{O'zgaruvchan xarajat}]}{\text{Doimiy xarajat} + \text{O'zgaruvchan xarajat}} * 100$$

$$\text{Rentabellik, \%} = \frac{68\,000\,s \cdot 300\,kg - (15\,450\,000\,s + 38484\,s \cdot 100\,kg)}{15\,450\,000\,s + 38484\,s \cdot 100\,kg} \cdot 100$$

$$= 5,7\%$$

Demak, berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha Payariq tumani xo'jaliklarida 5,7 foiz rentabellik bilan go'sht ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Ayni chog'da, go'sht ishlab chiqarish rentabelligini yanada ko'tarish uchun semirish vazndagi hamda o'zgaruvchan xarajatlardagi, shuningdek, sotish narxidagi yangi qiymatlarni marketing tadqiqotlari asosida aniqlash talab etiladi.

Bizning xisob-kitobimizga ko'ra turli darajadagi rentabellik ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun 2-jadvaldagi ziyonsiz ishlab chiqarish hajmi hamda o'zgaruvchan xarajatlar tegishli darajada qayta aniqlanishi kerak.

2-jadval

**Go'sht ishlab chiqarish samaradorligining istiqbol ko'rsatkichlari<sup>2</sup>**

(tirik vazn hisobida)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Rentabellik ko'rsatkichlari		
		2021	2022	2023
1. Boshlang'ich vazn	kg.	200	200	200
2. Boshlang'ich narx(t.v.)	ming so'm	77,25	77,25	77,25
3. Doimiy xarajatlar	ming so'm	15450	15450	15450
4. 1 kg semirishning o'zgaruvchan xarajati	ming so'm	38,484	30,594	38,484
5. Semirish vazni	kg.	100	100	132
6. O'zgaruvchan xarajatlar	ming so'm	3848,4	3059,4	3848,4
7. Go'shtga topshirish vazni	kg.	300	300	332
8. Sotish narxi	ming so'm	68,0	68,0	68,0
9. Cotishdan tushum	ming so'm	20400	20400	22576
10. Jami xarajatlar	ming so'm	19298,4	18509,4	19298,4
11. Foyda	ming so'm	1101,6	1890,6	3277,6
<b>Rentabellik</b>	<b>%</b>	<b>5,70825</b>	<b>10,1426</b>	<b>16,9837</b>

<sup>2</sup> Payariq tumanidagi xo'jaliklarning tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Ziyonsizlik nuqtasini hisoblash				
1-variant (semirish vazni const)				
Jami o'zgaruvchan xarajatni hisoblash	ming so'm	4875,6	4875,6	7043,712
1 kg. uchun o'zgaruvchan xarajat	ming so'm	48,756	48,756	53,3614
2-вариант (семириш вази ўзгарувчан)				
Jami o'zgaruvchan xarajatni hisoblash	ming so'm	4875,6	4875,6	7043,712
1 boshning semirish vaznini hisoblash	kg.	126,691	159,364	183,029

**Xulosa va takliflar.** Qishloq xo'jaligida go'sht ishlab chiqarish samaradorligining istiqbol ko'rsatkichlarini hisoblash ikki qismga ajratildi. Birinchi qismda, Payariq tumanidagi turli shaklda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tanlanma kuzatuv va tahlil ma'lumotlari asosida rentabellikning mavjud tadbirkorlik muhiti sharoitlaridan kelib chiquvchi bashorat ko'rsatkichlari hisoblandi. Ushbu qismda xo'jalikdagi chorva mollari bo'rdoqchilikda foydalanish hususiyatlari asoslandi. Jumladan, 5,7 foizlik rentabellikni asoslashning tashkiliy jihatlarini ta'minlandi.

Jadvalning ikkinchi va uchinchi ustun ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblashlardan ko'rinadiki, sotuvdan tushgan tushum o'zgaragan holda jami o'zgaruvchan xarajatlar hamda 1 kg semirish xarajatlarini 38,484 ming so'mdan 30,594 ming so'mgacha kamaytirish talab etiladi. Shuningdek, 1 kg semirish xarajatlari o'zgaragan holda semirish vaznini 100 kg dan 132 kg gacha oshirish belgilangan samaradorlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Tahlilning ikkinchi qismida, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda samaradorlikning muhim ko'rsatkichi bo'lgan ziyonsizlik nuqtasini hisoblash ishlari amalga oshirildi. Hisoblashlarni yaqqalroq talqin etishda 2 xil variantdagi ko'rsatkichlari o'zgarishiga e'tibor qaratildi. Jumladan, 1-variant uchun semirish muhlati va vazni o'zgaragan holda ziyonsizlikni ta'minlashning o'zgaruvchan xarajatlar bilan bog'liq jihatlar hisobga olindi. Jumladan, 21400 ming so'mlik sotuvdan tushumini ta'minlash uchun boshqa sharoitlar o'zgaraganida 1 kg semirish uchun o'zgaruvchan xarajat summasi 48,756 ming so'mgacha ortishi mumkinligi aniqlandi.

2-variantda hisob-kitoblari uchun chorva molining semirish vazniga qo'yiladigan talab o'zgarishlar manbaini tashkil etadi. Bunda

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, / <https://lex.uz/docs/4567334>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 29 yanvardagi PK-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori, / <https://lex.uz/docs/4717189>
4. Исмаилов А.К. Проблемы самообеспечения Узбекистана животноводческой продукцией. –Ташкент, "Мехнат", 1988. –232 с.
5. Nosirov U.N. Qoramolchilik, Darslik. –T.: 2001. –383 b.
6. A.Abduraximov, Z.Kusharov. Qishloq xo'jaligida go'sht ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish istiqbollari (monografiya). "Ren-Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.7,2 b.t., Toshkent-2012
7. N.Noraliev, Z.Kusharov. Raqamli iqtisodiyot sharoitida chorvachilik mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini modellashtirish (monografiya). "Iqtisod-moliya" nashriyoti, "Xumoyunbek-istiqloq mo'jizasi" bosmaxonasi. Toshkent – 2019 y

mavjud sharoit vaziyatida 1 bosh qoramolning semirish vazni 126,7 kg gacha yetishi ziyonsizlik chegarasi hisoblanadi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida ziyonsizlik nuqtasini hisoblash variantlarida 2 xil mezon(semirish vazni o'zgaragan hold; semirish vazni o'zgaruvchan hold) asos qilib olindi. Ushbu hisoblash natijalari ixtiyoriy xo'jalik subyekti uchun rentabellik faoliyat ko'satishning turli chegaralari bilan bir qatorda ziyonsizlik nuqtasigacha bo'lgan chegaralar oralig'i aniqlandi.

Bunda asosan yuqorida ta'kidlaganimizdek, go'sht mahsulotlari bozorida assortiment tabaqalanishini yo'lga qo'yish hisobiga sotish narxini takomillash-tirish, xarid qilinadigan yem-xashaklar uchun xarajatlarni qisqartirish, bo'rdoqchilikda zotdor qoramollardan foydalanish, qoramollarni sifatli oziqlantirish ratsioniga amal qilish, bo'rdoqiga boqiladigan qoramollar uchun doimiy xarajatlarni qisqartirish, poda tarkibi va harakatini tubdan yaxshilash, zooveterinariya qoidalariga rioya qilish kabilarga e'tibor qaratish muhim o'rinni tutadi.

Fikrimizcha, go'sht ishlab chiqarishning ixtiyoriy tadbirkorlik subyektidagi samarali iqtisodiy tizimining tarkibiy qismlarini asosli ravishda tanlashni zarur qilib qo'yadi. Bizning tahliliy kuzatuvlarimiz natijalariga ko'ra ushbu tizim tarkibiy qismlari jumlasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanar ekan:

1. Go'sht ishlab chiqarishni tashkil etishdagi samaradorlik;
2. Davlatning go'sht ishlab chiqarish faoliyatiga aralashuvi samaradorligi;
3. Iqtisodiy omillar taqsimotidagi samaradorlik;
4. Poda tarkibiy tuzilishi, tiklanishi va harakatidagi samaradorlik.

8. Z.Kusharov. Agroservisni rivojlantirish asosida chorvachilikda menejment samaradorligini oshirish mexanizmlari (monografiya). TDAU Taxririyyot nashriyot bo'limining RIZOGRAF apparatida chop etildi. Toshkent – 2021 y

9. Z.Kusharov. Turli xo'jalik yuritish shakllaridagi qishloq xo'jaligi korxonalarida go'sht ishlab chiqarishning ahamiyati (maqola) "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №1, 2021, 248-1241 betlar.

<https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/68>

10. Урманов Н.Т. Моделирование производственной программы по животноводству в сельскохозяйственных предприятиях: Автореф... к.э.н. –Т.: 1989. –23 с.

11. Халиков С. Р. Экономическая эффективность интенсификации производства говядины и пути ее повышения в условиях орошаемого земледелия: Автореф. дис.к.э.н.,–Киев, 1984. –23 с.

12. Хидиров И. Интенсификация производства говядины. –Т.: "Мехнат", 1989. –48 с.

13. Xakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. Monografiya, –T.: 2005, –126 b.

14. "Zooveterinariya" jurnali: -Toshkent, 2018. №6-7, -B. 5.

15. Stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti